

OITS SINDROMI -DUNYO MUAMMOSI

Eshqobilova Aziza Ishdavlat qizi

Xolmo‘minova Osuda Zafar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining talabalari

Annotatsiya: Hozirgi davrda eng katta muammolardan biri bu OITS -Ortirilgan immunitet tanqisligi virusi hozirda bu kasallikni davolash choralari topilmagan bu maqolani yozishimizdan maqsad barcha insonlarni ogohlantirish kasallik haqida ma'lumotlar berish bilan birga undan saqlanish yuqitirib olmasligimiz kerakligi haqida ma'lumotlar berish hisoblanadi .

Kalit so‘zlar: O‘tkir davri,inkubasiya davri,latentlik davri,OITSdan oldingi davri,terminal davri,qon,limfa,orqa miya,bosh og‘rig‘i,sovqotish,bedarmonlik faringit,stomatit, ko‘ngil aynishi,ich ketishi,haroratning ko‘tarilishi,kandidoz,limfa bezlarning yiriklashuvi.

Bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan muammolardan biri kasalliklar hisoblanadi.Hozirgi vaqtda jahon jamoatchiligini tashvishga solayotgan eng xavfli xastaliklardan biri OITS hisoblanadi.OITS-o‘ziga xos kasallik bo‘lgani uchun biologik va tibbiyot mutaxassislari qatori psixiatrlar ham o‘rganishi kerak bo‘ladi.OITSda kuzatiladigan ruhiy buzilishlar turli-tumandir . Birinchi marta 1981-yilda AQSHda ro‘yxatga olingan.Kasallikni qo‘zg‘atuvchisi odamda immunitet tanqisligi virusi deyilib,uni 1983-yilda Fransiyalik olim L.Montane tomonidan aniqlagan.Odamda immunitet tanqisligi sindromi sog‘ odamga OITS bilan xastalangan bemordan hamda tanasida shu virusni tashib yuruvchi ,ya'ni hozircha o‘zida kasallik belgilari rivojlanmagan odamdan ham yuqadi.Virus bemorning qoni, limfasi ,orqa miya suyuqligida ko‘p uchraydi.OITS virusi bosh miyaning oq va markaziy nerv tizimini zararlaydi.Bemor qo‘l-oyoqlarining nerv tolalari bo‘ylab og‘riq seziladi.Ba'zi bemorlarda qo‘l-oyoq falaji ,xotiraning va aqliy mehnatning qobiliyatining pasayishi holatlari kuzatiladi.OITSda ruhiy buzilishlar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri bemorning siqilishidir.Bunda qo‘zg‘aluvchanlik ,ipoxondrik siqilish ,depressiya,qisqa vaqtli reaktiv psixozlar , paranoid shizofreniyaga oid psixozlar kuzatiladi.Ko‘pincha depressiya OITSning birinchi sindromi bo‘lishi mumkin.Qo‘zg‘aluvchanlik qo‘rquv ,anoreksiya va uyqusizlik bilan boradi.Bemorda murakkab psixopatologik belgilar kelib chiqadiki,shizofreniyaga o‘xshash o‘tkir ,paranoid va depressiv psixozlar hamda turg‘un gipomaniakal va maniakal holatlar kabi qator endogen kasalliklar bilan qiyosiy tashxislash kerak bo‘ladi.Bu kasallikda nevrotik depressiya nisbatan kam uchraydi.Depressiya natijasida yoki mustaqil ravishda bemorda obsessiv -komulsiv

buzilishlar tavsifidir. Virus ko‘pincha organizmni kasalliklardan himoya qiluvchi antitelalar ishlab chiqaradigan qon hujayralari-limfotsitlarni zararlaydi va ularning sonini kamaytirib organizmning immunitet qobiliyatini kuchsizlanishiga olib kelib immunitetni butunlay yo‘qolishiga olib keladi. Shu sababdan kasal organizmning immunitetlik xususiyati yo‘qolib borgandan so‘ng ,turli xil kasalliklarga tez chalinuvchan bo‘lib qoladi . OITSning belgilari :jag‘ osti,bo‘yin ,qo‘ltiq osti,chov sohasidagi ,nafas yo‘llari (bronxlar) va ichaklar atrofidagi limfa tugunlari kattalashadi. Terida yiringli yaralar paydo bo‘ladi,vaqti-vaqti bilan tana harorati ko‘tariladi.OITS -infeksiyali immunitet tanqisligini vujudga keltirgani sababli (OITS bilan kasallangan bemor angina ,gripp,sil (tuberkulyoz),pnevmoniya ,salmonellyoz,sepsis kabi kasalliklarga tez beriluvchan bo‘ladi va shu kasalliklar tufayli hayotdan ko‘z yumadi.Virus immun tanqisligi rivojlanishiga ko‘ra 5 davrga bo‘linadi.

1-Inkubatsiya davri organizmga virus yuqishidan boshlab 14 -kundan bir yilgacha davom etadi.

2-O‘tkir davr virus yuqqanidan 7-14,ba'zan 30 kun o‘tgach namoyon bo‘ladi.Bu davr kasallik alomatlari:haroratning ko‘tarilishi,sovqotish,bedarmonlik,faringit,eshakyemi toshishi,bosh og‘rig‘i,stomatit,ko‘ngil aynishi,ich ketishi kabi o‘tkir belgilar orqali namoyon bo‘ladi.

3-Latentlik davrida kasallik alomatlarning pasayishi,limfa bezlarning og‘riqsiz yiriklashuvi kuzatiladi.Latent davri 5-10 yil davom etadi.Turli xil davolash tadbirlari orqali bu davrni bir necha 10 yilgacha cho‘zish mumkin.

4-OITSdan oldingi davr 1-2yil davom etadi.Bu davrda hujayra immuniteti pasayishi tufayli stomatit ,gerpes,kandidoz,til lekoplakiyasi kabi kasalliklarning takrorlanishi va uzoq davom etishi bilan bog‘liq.

5-Terminal OITS davri virusli infeksiyaning songgi o‘lim oldi davri hisoblanadi.Bu davrda sil,meningit,ensifalit,grip,o‘pka yangilanishi,gerpes,saraton,limfoma kabi har xil infeksiyali va infeksiyasiz kasalliklar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Bu davrda davolash chorasi krilmaganda 3 yilgacha ba'zan 1 yil davom etadi.OITSning psixopatologik simptomlari rakning terminal bosqichidagi bemorda kuzatiladigan belgilarga juda o‘xshab ketadi.Kasallikning o‘tib borishiga qarab 40% hollarda bosh miyaning organik zararlanishiga olib keladi,80% hollarda operativ yo‘l bilan diffuz ensefalopatiyasi tasdiqlanadi.Bunday hollarda bemorlarning diqqati asta-sekin pasayadi va bo‘lib o‘tgan voqeani tez unutadi.Bir necha hafta ichida bemorda aqliy pastlik,ong buzilishlari,mutizm ,siydik -najasini tuta olmaslik va koma yuzaga chiqadi.Komputer tomografiyasida har 10-13% hollarda serbrel

atrofiyasi aniqlanadi. Immun tanqisligi virusi bilan zararlanish narkomanlar orasida ko'proq uchraydi. Sterillanmagan tibbiyot, kosmetologik, sartaroshlik asbob-uskunalari orqali ham virusning tarqalishiga sabab bo'ladi. Virus homiladorlik davrida ona qonidan va virus bilan zararlangan ona sutidan ham bolaga yuqishi mumkin. OITS murakkab, kam o'rganilgan va hozirgacha davolash, emlash usullari ishlab chiqilmagan. Bunda juda ko'p a'zo va tizimlar o'z faoliyatini bajarmay qo'yadi. Ayniqsa markaziy nerv tizimidagi o'zgarishlar nevrologik va ruhiy buzilishlarga olib keladi, natijada bemorni ijtimoiy mehnat va ruhiy dezadaptatsiyaga olib keladi. XXI asr o'lati deb nom olgan. 1-dekabr -Umumjahon OITSGa qarshi kurashish kuni deb e'lon qilingan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2000-yining oxirida dunyo bo'yicha OITSni o'ziga yuqtirib olgan odamlar soni 50 millionga yetgan, 16,3 million kishi vafot etgan. O'zbekistonda kasallikni yuqtirib olganlar soni 190 kishini tashkil etgan, ulardan 14 nafari hayotdan ko'z yumgan. Bu 2000 - yidagi ma'lumotlar edi hozirda bundan ham ortiqni tashkil etadi. Xulasa o'rnida shuni aytmanki barchamiz bu virusdan ogoh bo'laylik yuqtirib olmasligimiz uchun kasalliklardan bohabar bo'lib turaylik. Doimo tozalikka, sog'lom turmush tarziga rioya qilishimiz gigiyena talab qoidalariga rioya qilsak hech qanday virus bizning ichimizda o'z hukmronligini o'tkazolmaydi. Xalqimiz aytishdiki «Sog' tanda sog'lom aql» deb. Kelajak avlodimiz virusga qarshi davolash yo'llarini izlab topishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 M.R. Po'latxo'jaeva. Defektologiyaning klinik asoslari. -T.. Toshkent 2013.
- 2 M.A. Хужамбердиев А.А. Михайлов Н.С. Мамасолиев. Ички касалликлар тиббий маслалар. -Т.. Тошкент Ибн Сино номидаги нашрият-матбаа бирлашмаси 1994.
- 3 M.M. Abdulxayeva. Biologiya. -T.. Navro'z nashriyoti 2018.